

PSIXOLINGVISTIKADA EKSPERIMENTNING O'RNI

*Nuraybat Maxsetovna Urakbayeva**Qoraqalpoq davlat universiteti 1-kurs magistranti**Muqaddas Allamberganova**Ilmiy rahbar, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD*

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixolingvistika va uning tadqiqot metodi bo'lgan eksperiment hamda o'tkazilgan eksperiment natijalari berilgan.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, eksperiment, erkin assotsiativ eksperiment, yo'naltirilgan assotsiativ eksperiment, zanjirli assotsiativ eksperiment, reaksiya so'z, stimul so'z.

Psixolingvistika psixologiya va lingvistikaning tekshirish obyektlarining kesishuvidan paydo bo'lgan bo'lgan zamonaviy fan bo'lib, nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini, ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanishini o'rganadi. "Psixolingvistika-bu tilshunoslik va psixologiya g'oyalari olib boriladigan fan. U tilni tushunish va til vositasida nutq hosil qilishning kognitiv jihatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Tilning dastlabki psixologik ma'lumotlari Vundtning "Die Sprache" (1900) asari bo'lib, unda asosan, Jung grammatiklarning tilni psixolingvistik jihatdan tushuntirish haqidagi ma'lumotlar berilgan¹. Rus psixolingvistikasining asoschisi A.A.Lyontyev: "Psixolingvistikaning predmeti nutq faoliyatidir. Psixolingvistik tadqiqotlar esa shaxsning lingvistik qobiliyatini nutq bilan bog'liq holda tahlil qilishga qaratilgan".² Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo'li bilan tekshiradi. Shuning uchun ham, psixolingvistika eksperimental fan hisoblanadi.

Eksperiment so'zi "sinab ko'rish" yoki "sinov" degan ma'noni bildiradi. Eksperiment ilmiy bilish metodi sifatida o'rganilayotgan predmetlar va jarayonlarni nazorat qilinuvchi va boshqariluvchi sharoitlarda sinab ko'rish demakdir. Psixolingvistikada eksperiment asosida tadqiqot o'tkazishning birqancha afzalliklari bor:

- tadqiqotchi eksperiment asosida o'rganishda faoliyatning faol ishtirokchisiga aylanadi;
- eksperiment jarayoniga va uning xarakteriga ta'sir qila oladi;

¹ Psycholinguistics John.N.Williams University of Cambridge, UK

² Белянин В.П. Психоллингвистика М-2004

- qisqa vaqt ichida ko'proq ma'lumot olish imkonini beradi.

O'rganilayotgan nutqiy faoliyatning qonuniyatlari juda murakkab bo'lgani uchun turli variantlardagi eksperimentlarni o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, bir xil topshiriqni bir paytning o'zida ham talabalarga, ham o'quvchilarga berish mumkin.

Tilshunoslikda fonetika sohasi bo'yicha eksperimental ishlar ancha yaxshi tanilgan. Eksperimental fonetika nutq tovushlarini tadqiq qilishda eksperimental metoddan foydalaniladi. Eksperimental fonetik metod nutq tovushlarini, prosodemik hodisalarni (masalan, intonatsiya, pauza, ritm) o'rganishda tovushlarni yozib oluvchi, ularni, mohiyatidan kelib chiqib, tahlil qiluvchi maxsus texnik vositalardan, asboblardan foydalaniladi. Semantika sohasidagi tadqiqotlarda ham qator qiziqarli eksperimental metodikalar ishlab chiqilgan va yaxshi natijalar qo'lga kiritilgan. Biroq bu sohadagi tadqiqotlar oz va ular fonetik tadqiqotlar singari mashhur emas. D.Kempbell psixolingvistik eksperimentga shunday ta'rif beradi: "Eksperiment-tadqiqotning bir qismi bo'lib, unda tadqiqotchi manipulyatsiya jarayonida o'zgaruvchilar bilan bog'lanadi va hosil bo'lgan effektlarni kuzatadi"³

Assotsiativ eksperiment psixolingvistika, psixologiya, sotsiologiya sohalarida keng tarqalgan bo'lib faol qo'llaniladi. Uning uchta turi mavjud:

- erkin assotsiativ eksperimentda respondentlarning reaksiyasiga hech qanday chegara qo'yilmaydi.

- yo'naltirilgan assotsiativ eksperimentda respondentlardan ma'lum grammatik yoki semantik guruhdagi assotsiatsiyalarni (masalan, otlarga mos sifat topish) berish so'raladi.

- zanjirli assotsiativ eksperimentda respondentlardan bir qancha stimul so'zlarga (masalan, 20 soniya ichida 10 ta reaksiya so'z berish) assotsiatsiyalar berish so'raladi.

Assotsiativ eksperiment (associative experiment) semantikaning psixolingvistik tahlili eng ko'p ishlangan texnika hisoblanadi. O'qituvchilik faoliyatidan kelib chiqib, har xil sinfdagi o'quvchilar orasida assotsiativ eksperiment o'tkazildi. Assotsiativ eksperimentda o'quvchilarga har xil sohaga oid bo'lgan stimul so'zlar berilib, ulardan o'sha so'zni eshitgan paytda xayoliga birinchi kelgan fikrni ifodalovchi reaksiya so'zlarni yozish so'raldi. O'qituvchi tomonidan ikki sinfga alohida qalam, ona, universitet, telefon, do'st, oila, sevgi, kelajak, pul, maktab stimul so'zlarini o'qib turildi. O'quvchilar esa bu so'zlarga o'zlarining reaksiyalarini so'zlarda ifodalab yozishdi. Bunda 7-sinf va 8-sinf o'quvchilari orasida yuqoridagi stimul so'zlarni berish orqali bu so'zlarga ularning munosabatini bilishga, shuningdek, ularning ichki psixikasini o'rganishga harakat qildik hamda 1-jadvalda berilgan natijalarga erishildi:

³ Белянин В.П. Психоллингвистика М-2004

Stimul so'zlar	Reaksiya so'zlar	
	7-sinf	8-sinf
Qalam	Qora-4, yashil-2, ruchka-3	Qora-5, qalam-2
Ona	Ona-6, mama-2, jannatim-3	Ona-4, mehribon-6
Universitet	O'qish-4, maktab-3, kelajak kaliti-2	Bino-2, o'qish joyi-4, student-2
Telefon	Saytlar-2, Instagram-5, free fire-2	Internet-3, gaplashish-2, naushnik-2, ma'lumot-2
Do'st	Hamma-1, do'stlarining ismlari	Suyanch-2, ota-ona-3, dushman-1
Oila	Ota-ona-5,	Boylik-2, ota-ona-3, jamuljam-1
Sevgi	Ota-ona-7, oila-2, futbol-1	Oila-2, mehribonlik-1, o'yin-2
Kelajak	Maqsadlarga erishish-2, qarish-3	O'qish-2, maqsad-2, qiynalish-3, Jannat-1, uylanish-1
Pul	Boylik-2, qog'oz-2	Boylik-3, Amerikaga ketish-1, xarid-2
Maktab	Do'stlar-2, 2-uy-2, qamoqxon-2	Ustozlar-2, jamoat joyi-1, o'quvchi-2

(1-jadval)

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib shuni aytamizki, o'quvchilarning berilgan stimul so'zlarga reaksiya so'zlari umumiy va xususiy sifatlarga ega. Masalan, *telefon* so'ziga 7-sinf o'quvchilarining reaksiyasi ijtimoiy tarmoqlar, o'yinlar bilan bog'lik. Ya'ni bu yoshdagi o'quvchilarning ko'pchilik qismi telefonda aynan shu maqsadlarda foydalanishadi. 8-sinf o'quvchilarining ko'pchiligi esa bu so'zga internet, "ma'lumot" deb yozishgan, ya'ni ular ulg'aygani sari telefonning foydali jihatlarini ma'lumot olish imkoniyatini anglab borishmoqda. Bu yoshda o'quvchilar qo'shimcha kurslarga borishining natijasida, ular ko'proq ma'lumotga ehtiyoj sezishganligi uchun aynan mana shu tomonini yozishgan. *Do'st* so'ziga ham ko'pchilik do'stlarining ismini yozishgan, ba'zilar *ota-onasini*, bittasi esa dushman deb yozgan. Keyin surishtirsak, uning eng yaqin do'sti dushmaniga aylangan ekan. Ushbu assotsiativ eksperiment orqali o'quvchilarning psixologiyasini, ular ifodalagan birgina so'z bilan ichki dunyosini, qanday o'y-xayollarda yurganini bilib olishga bo'ladi. Shunga qarab, o'qituvchi sifatida, ularning dunyoqarashini, fikrlarini yaxshi tomonga o'zgartirishga harakat qilish mumkin. Xullas, assotsiativ eksperiment ishonarli lingvistik va psixolingvistik ma'lumot beradi. Ommaviy eksperiment materiallari tilning ma'lum assotsiativ guruhlari, madaniy xususiyatlari, sotsiologik va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni amalga oshirishda qo'l keladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, psixolingvistik tahlida assotsiativ eksperiment metodi asosida o'rganish aniq va tez ma'lumot olishga, respondentlarning fikrlarini, ishki dunyosini o'zlari ifodalagan birgina so'zi orqali bilib olish imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida eksperimentning bir ko‘rinishidan foydalanildi, xolos, uning boshqa turlaridan ya’ni erkin assotsiativ, yo‘naltirilgan assotsiativ turlaridan foydalanib ham yaxshi natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. John.N.Williams “Psycholinguistics” University of Cambridge, UK-1999, 3-page
2. Белянин В.П. “Психоллингвистика” М-2004, 21-bet.
3. Shamsiyeva.Sh, Usmonova.Sh “Psixolingvistika” T-2014, 68-bet,
4. Xolmonova.Z, Abdurahmonova.M, To‘xtayeva.S “Psixolingvistika”-T:2019 65-bet,